

Buyuk va suyuq yozuvchi

Qirg'iz xalqi Chingiz Aytmatov bilan qay darajada faxrlansa, o'zbek xalqi ham uni shu darajada e'zozlaydi o'z farzandidek suyadi, ardoqlaydi. 2018 yil 12 dekabr kuni "Buyuk adib va jamoat arbobi o'zbek va qirg'iz xalq yozuvchisi Chingiz Aytmatov tavalludining 90 yilligiga bag'ishlanib o'tkazilgan tantanali tadbirda Bodomzor yo'li ko'chasiga Chingiz Aytmatovning nomi berildi hamda shu ko'chada adib haykalining ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Unda "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti talabalari dekan, dekan o'rinbosari va professor o'qituvchilar faol ishtirok etishdi. Tadbirda bir guruh davlat arboblari, shoir va yozuvchilar, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi a'zosi Sirojiddin Sayyid, Prezident maslahatchisi, Bosh vazir o'rinbosari xotin-qizlar qo'mitasining raisi va ommaviy axborot vositasi xodimlari tashrif buyurishdi. Ushbu haykal ochilishida adibning ijodini qiziqish bilan sevib mutolaa qiladigan fakultetning 1 kurs 2 guruh talabalari guruh murabbiysi boshchiligida faol eshtirok etishdi.



YERB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini Hurriyat Eshova axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov